

“Olmaliq KMK” AJning 2021 yil yakunlari bo'yicha TAHLILIY MA'LUMOTNOMASI

“Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi – Xursanov Abdulla Xalmuradovich.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturining eng muhim ustuvor yo'nalishlarini bajarish davomida “Olmaliq KMK” AJ jamoasi 2021 yil yakunlari bo'yicha quyidagi tovar mahsulotlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishdi:

- amaldagi narxlarda 117,6 %ga.

2020 yilning mos davriga solishtirma narxlarda tovar mahsuloti o'sish sur'ati 100,1% ni tashkil etdi.

Mis katodini ishlab chiqarish 100,3 %, shu jumladan 100,4 % o'z xom ashyosidan, metalli rux 90,0 %, shu jumladan 101,6 % o'z xom ashyosidan, 104,8 % sulfat kislotasi, 100,9 % affinajli oltin va 101,1 % affinajli kumush, 91,3 % portlandsementni tashkil etdi.

2021 yil yakuni bo'yicha 133,7 % ga mahsulotlar eksportga sotildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 9 yanvardagi PQ-4563 sonli “O'zbekiston Respublikasining 2020-2022 yillarga mo'ljallangan Investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoniga muvofiq 2021 yilga “Olmaliq KMK” AJ ishlab chiqarish quvvatini oshirish va xom ashyoni qayta ishlash uchun 5 039,6 mln. dollarlik investitsiya o'zlashtirilishni mo'ljallagan, shu jumladan o'zlashtirish prognozi:

korxonaning o'z mablag'lari hisobidan – 1 724,0 mln.doll.;

tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'laridan– 336,4 mln.doll.;

tijorat banklarining kreditlaridan – 62,7 mln. doll;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlardan – 2 916,5 mln. doll.

2021 yil yakuni bo'yicha 467,8 mln. dollar (102,4 %) miqdorida investitsiyalar o'zlashtirildi, shu jumladan:

korxonaning o'z mablag'lari hisobidan – 397,4 mln. doll.;

tijorat banklarining kreditlaridan – 1,4 mln. doll.;

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy kreditlar xisobidan – 68,9 mln. doll. o'zlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 martdagi 136-sonli “2020-2021 yillarda ichki va tashqi bozorlarda xaridorgir mahsulotlarni ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi to'g'risida” gi qaroriga muvofiq “Olmaliq KMK” AJ 2021 yilda 161,4 mlrd. so'mlik 87 ta loyihani amalga oshirishi ko'zda tutilgan.

2021 yil yakuni bo'yicha 87 ta loyiha asosida mahalliyashtirilgan mahsulotlar ko'rsatkichi 217,2 mlrd. so'mni yoki prognozga nisbatan 134,5 foizni tashkil etdi.

2021 yilga mo'ljallangan ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish bo'yicha tashkiliy-texnik chora-tadbirlar kompleksi ishlab chiqilgan bo'lib, unda ishlab chiqarish xarajatlarini 240,9 mlrd. so'mga yoki 1,8 foizga qisqartirish ko'zda tutilgan.

2021 yil yakuni bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari kompleksini amalga oshirishdan kutilayotgan natija 604,8 mlrd. so'mni yoki 4,6 foizni, shu jumladan ishlab chiqarish tannarxi. 393,6 mlrd. so'm yoki 3,0 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

Kombinatda boshqaruvni takomillashtirish, moliyaviy-iqtisodiy ahvolni mustahkamlash, debitorlik va kreditorlik to'lovlarini kamayishini ta'minlash tadbirlari amalga oshirilib kelinadi.

2022 yil 1 yanvar xolatiga kombinatning kutilayotgan debitorlik qarzlari 2609,7 mlrd. so'mni, shu jumladan muddati o'tgan qarzlari 139,5 mlrd. so'mni, kreditorlik qarzlari 4875,4 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Byudjetga yoki ish haqiga nisbatan qarzdorlik mavjud emas.

Ishchi-hodimlarni texnik tayyorlash dasturiga muvofiq kadrlarning malakasini oshirish uchun 5487 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari xolda 789 nafar, qayta tayyorlash va ikkinchi mutaxassislikni o'zlashtirish bo'yicha 2242 nafar, rahbar va mutaxassislarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha 1744 nafar, shu jumladan, ishlab chiqarishdan tashqari 232 nafar kishi o'qitildi.

“Olmaliq KMK” AJ O'zbekiston Respublikasidagi 10 ta oliy o'quv yurti va Rossiya Federatsiyasining MTTU “MISiS” universiteti va filiallari bilan oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash bo'yicha hamkorlikni olib boradi.

Hozirgi kunda umumiy talabalar soni 357 tani tashkil etmoqda, bundan 54 ta talaba OTMlarning kunduzgi va 303 ta talaba sirtqi va kechki bo'limlarida ta'lim olmoqda.

Masofaviy o'qitish.

1. "Olmaliq KMK" AJ tarkibiy bo'linmalari xodimlarini "Ish yurituvchilarining xujjatlarni rasmiylashtirishda talablar jarayonini o'rganish" maqsadida jami 110 nafar mutaxassislar katnashdi.

2. OTM talabalar uchun Telegramm kanal orqali masofaviy Onlayn amaliyot tashkil etildi. Onlayn amaliyotda jami 374 talabalar qatnashdi.

3. 4 nafar mutaxassislar uchun Inxa universitetida "Zoom" ilovasi orqali "Oracle Database 12c R2: Backup and Recovery workshop" malaka oshirish kurslari tashkil etildi.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 24 iyundagi "Kon-metallurgiya sanoati va unga bog'lik soxalarni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-5159-sonli Qarori, va "Olmaliq KMK" AJ boshqaruv raisi tomonidan qabul qilingan 00883-sonli buyruq ijrosini ta'minlash maqsadida Milliy tadqiqotlar texnologiya universiteti "MISiS" Olmaliq filiali hamkorligida kombinat korxonalarida kon ishi yo'nalishi (er osti ishlari) bo'yicha faoliyat yuritayotgan 46 nafar muhandis-texnik xodimlarning malakasini oshirish maqsadida masofaviy kurslar tashkil etildi.

Kollejlar bilan hamkorlik.

Kon-metallurgiya kollejining ta'mirlash ishlari 85%ga bajarildi va kollej moddiy bazasiga kompyuter va jihozlar keltirildi. Kombinatsion tarkibiy bo'linmalarida Olmaliq kon-metallurgiya kollejidan 302 nafar va Olmaliq arxitektura qurilish texnikumidan 19 nafar o'quvchilar amaliyot o'tashmoqda. Konchilik va kon-metallurgiya kollejlari 2019 yilning 830 nafar, 2020 yilning 138 nafar bitiruvchilariga ishga kirishi uchun yo'llanmalar berilgan.

Qisqa muddatli o'quv kurslar.

- 1153 nafar tinglovchilarga sertifikatlar topshirildi.
- 56 nafar tinglovchilar uchun kurslar tashkil etilgan.

Yil yakuniy hisobotida 1209 nafar yoshlar qayta tayyorlash kurslarini tamomlaydi.

Hisobot davrida jami 1400 nafar, jumladan kollej bitiruvchilari 779 nafari, oliy ta'lim bitiruvchilari 398 nafar va ma'lumotsiz 223 nafar kishi ish bilan ta'minlandi.

Yuqori turuvchi tashkilotlarining topshiriqlarini o'z vaqtida bajarish, ijro intizomini nazorat qilish tizimini takomillashtirish maqsadida "Olmaliq KMK" AJ Ijro apparatida yuqori tashkilot topshiriqlarini bajarilishini nazorat qilish xizmati tashkil etilgan va ijro intizomi holatini tizimli va tanqidiy tahlil qilish tartibi belgilandi.

Yil davomida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari va hukumat qarorlarining joylardagi ijrosini o'rganish ishlari amalga oshirish mobaynida hisobot tizimini joriy etish va belgilangan muddatlarda hujjatlar ijrosi ustidan nazoratni tashkil etish ishlari olib borilmoqda. Kombinatsion ish rejasiga asosan analitik hisobotlar tayyorlanib bayonnomalar tuzib borilmoqda.

Qarorlari ijrosini tanqidiy tahlil qilish, kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

2021 yil yakuni bo'yicha jami 939 ta hujjat kirim qilingan, shu jumladan:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari 142 ta – (9 ta Farmon, 24 ta qaror, 4 ta farmoyish, 20 ta bayon, 85 ta topshiriq);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining hujjatlari va topshiriqlari 795 ta (64 ta qaror, 18 ta farmoyish, 110 ta bayon, Bosh vazir, uning o'rinbosarlari va maslahatchilari topshiriqlari – 322 ta, kotibiyat topshiriqlari – 281 ta).

Fuqarolar bilan ochiq muloqot olib borish, tushgan murojatlarni sinchiklab ko'rib chiqib, aniq qaror qabul qilish maqsadida "Olmaliq KMK" AJ ijro apparatida yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarni nazorat qilish va ishlash xizmati joriy qilingan. Bo'limda har kunlik doimiy qabul tashkil etilgan.

2021 yil davomida "Olmaliq KMK" AJga jismoniy va yuridik shaxslardan 3971 ta murojaatlar kelib tushgan, shundan 2044 tasi yozma va 275 tasi elektron, 328 tasi og'zaki murojaatlar.

Kelib tushgan arizalar mazmuni – moddiy yordam, ishga joylashish va tiklanish, davolanish, mehnat munozaralari, oylik maosh, xizmat uy-joylari bilan ta'minlanish, texnik xizmatlar, yer kadastri, transport muammolari va hakoza murojaatlardan iborat.